

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA HARBIY XIZMATCHILARNING RUHIY BARQARORLIK MODELI

Norbutayev Samandar Abdubakirovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi

***Annotatsiya:** Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari harbiy xizmatchilarining ruhiy barqarorligining modeli ko'p jixatdan shaxsni xizmat faoliyat sub'ekti toifasi nuqtai nazaridan o'rganish bo'yicha zamonaviy qarashlar bilan belgilanadi. Ushbu qarashdan foydalanishda, faqatgina harbiy xizmatchini ijtimoiy va xizmat faoliyati munosabatlari tizimga kiritish va xizmat faoliyat sub'ektiga aylantirish xizmat faoliyatining psixologik talablari va harbiy xizmatchining imkoniyatlari, qobiliyatlari sintezini ta'minlaydi.*

***Kalit so'zlar:** stress, ruhiy barqarorlik, hissiyot, zo'riqish, emotsiya, model.*

Kirish

Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari harbiy xizmatchilarining ruhiy barqarorligining modeli ko'p jixatdan shaxsni xizmat faoliyat sub'ekti toifasi nuqtai nazaridan o'rganish bo'yicha zamonaviy qarashlar bilan belgilanadi. Ushbu qarashdan foydalanishda, faqatgina harbiy xizmatchini ijtimoiy va xizmat faoliyati munosabatlari tizimga kiritish va xizmat faoliyat sub'ektiga aylantirish xizmat faoliyatining psixologik talablari va harbiy xizmatchining imkoniyatlari, qobiliyatlari sintezini ta'minlaydi.¹

Tadqiqot metodologiyasi va emperik tahlil

Ko'plab sotsiologik konsepsiyalar mavjud, ularda shaxsning aqliy rivojlanishi jamiyatning tarixiy rivojlanishi jarayonining asosiy bosqichlarini birinchi navbatda uning ma'naviy hayoti va madaniyatining rivojlanishini ixcham shaklda takrorlaydi.

¹ Абульханова-Славская К.А. Категория деятельности в советской психологии // Психологический журнал. – 1980. – №4. – Стр. 11–28.

Bundan kelib chiqqan holda, biz harbiy xizmatchining ruhiy barqarorligini uchta omil orqali ko‘rib chiqishimiz mumkin: *Biologik, psixologik va ijtimoiy*. Shu sababli ruhiy barqarorlik harbiy xizmatchining o‘z faoliyatini saqlab qolish qobiliyatidir. Psixologik lug‘atlarda barqarorlik tushunchasining 2 ta sinonimi keltiriladi: “stabillik va muvozanat”. “Stabiliti” termini: 1) Barqarorlik, stabillik, muvozanat holati; 2) Doimiylik, turg‘unlik, qat‘iylik sifatida qaraladi.”¹

Jamoat xavfsizligini ta‘minlash faoliyati sub‘ekti ruhiy barqarorligining uch omilli modelini ko‘rsatishimiz mumkin, bular: 1) harbiy xizmatchining kuchi-zaifligi; 2) harbiy xizmatchining harakatchanligi-inersiyasi; 3) harbiy xizmatchining muvozanati-muvozanatsizligi. Ko‘p jihatdan aqliy barqarorlik resurslari hatto besh yoshga to‘lmasdan ham shakllanadi.²

Asab jarayonlarining kuchi xarakterlidir. Bu ish qobiliyati, harbiy xizmatchi ruhiy holatining chidamliligi, qo‘zg‘alishi yoki dosh berish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Zaiflik – asab hujayralarining kuchli qo‘zg‘alishiga bardosh bera olmasligi, sekinlashishi.

Shuni aytish joizki, aqliy zo‘riqish ruhiy barqarorligi zaif bo‘lgan harbiy xizmatchilarda erta buziladi. Kuchli ruhiy barqarorlikka ega bo‘lgan shaxslar keskin vaziyatlarga ko‘proq chidamli bo‘ladilar.³ **Ruhiy barqarorlik modeli ishlab chiqishdan maqsad** – jamoat havfsizligini ta‘minlashda harbiy xizmatchilarda o‘z-o‘zini boshqarish va ruhan barqarorlik sifatlarini oshirish.

Ruhiy barqarorlik modeli tamoyillari – harbiy xizmat qiyinchiliklariga moslashish va jamoat xavfsizligini ta‘minlash xizmatida stress hamda dipressiyaga tushmaslik, kommunikativlik, maqsadga mvoqfiqlik, hissiy irodaviylik.

¹ Низомий номидаги ТДПУ доценти, психология фанлари номзоди С.Х.Жалилова. Шахсинг психологик барқарорлиги психик саломатлик кўрсаткичи сифатида” мақоласи (Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) Халқаро анжуман тўплами. Тошкент 24 ноябрь 2021й). 317 бет.

² Н.А.Жожикашвили, А.С.Малых, А.А.Девятерикова. “Психическая устойчивость”. Теоретическая и экспериментальная психология • 2021 • Т. 14 • № 4 • С. 49–65. 49-стр.

³ Илин Е.П. “обеспечение надежности деятельности в связи с учетом типологических особенностей свойств нервной системы” // Проблемы инженерной психологии. Ярославл: ЯрГУ-ИП АН, -С. 121–133.

Ruhiy barqarorlikka erishishning asosiy yo'llari – o'z kasbidan qoniqish hissini uyg'otish, quvonch, ilxom, uyg'oqlik, to'yinganlik, kuchlanish, jamoat xavfsizligini ta'milashda stresslar psixoprofilaktikasi, psixologik bilimlarni tizimli o'qitish, madaniy- ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish.

Ruhiy barqarorlik modelini shakllantiruvchi nazariy asos - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 8-sentyabrdagi PF-60 "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 91-moddasi.

Ruhiy barqarorlik modelini shakllantiruvchi mezonlar – affektiv, konativ, kognitiv, ijodkorlik, kreativ.

Ruhiy barqarorlik modelini rivojlantiruvchi darajalari - hayajon (boshlag'ich), faollik (o'rtacha), zo'riqish (yuqori).

Ruhiy barqarorlik modelini rivojlantiruvchi bosqichlari - *birinchi bosqichda*: ijobiy hissiyotlarni shakllantirish; *ikkinchi bosqich*; o'tayotgan xizmatiga nisbatan qiziqish va extiyojni qondirishga intilish; *uchinchi bosqich*: qiziqish va extiyojni qondirish yo'lida amaliyotni tashkil etish; *to'rtinchi bosqich*; qiziqish va extiyojni qondirish yo'lida tashkil etilgan amaliyot natijalarini psixologik baxolash;

Ruhiy barqarorlik modelini rivojlantiruvchi muhim omillari - *biologik*-instinktlar, nerv tizimining kuchi, muvozanati va harakatchanligi, *psixologik*-bilish jarayonlari, temperament, xarakter, *ijtimoiy*-aholiga munosabatlari va atrofdagilarga munosabati, madaniyati, xulq-atvori.

Metodika: stress va dipressiyaning oldini olish uchun treninglar (oyoq kiyimidagi tosh, sayoxat, nizolashuvchanlik darajasini aniqlash testi, va boshqalar); interfaol metodlar – rolli o'yinlar, tinchlantiruvchi musiqalar, ilmiy ishlar- "Концептуальная модел психологической устойчивости специалиста МЧС России на основе системного подхода". V.V.Kazankov.

Kutilgan natijalar – jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari harbiy xizmatchilarida ruhiy barqarorlikni ta'minlash (empirik), harbiy xizmatchilarning stressga tushishlarining oldini olish (ijodiy);

Kuchli ruhiy barqarorlikka ega bo'lgan jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb qilingan harbiy xizmatchilar ekstremal vaziyatlar sodir bo'lganda oqilona tashabbus ko'rsatadilar. Temperamentlarni hisobga olib, introvert va ekstrovert harbiy xizmatchilarni barqarorlik va beqarorlik kabi xususiyat eagariga ajartish mumkin. Xarakter harbiy xizmatchining boshqa belgilaridan ko'ra barqarorligi bilan ajralib turadi.

Xulosa

Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari harbiy xizmatchilari yuzaga kelgan muammolarni hal qilishda ruhiy barqarorlikka erishishi uchun qoniqish, quvonch, to'yinganlik tuyg'ularini his etishga harakat qilishlari zarur. Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari harbiy xizmatchisi xizmatga chiqish oldidan o'zini fuqarolar bilan xushmuomala bo'lishga ruhan tayyorlashi kerak. Komandir va boshliqlar tomonidan esa har bir harbiy xizmatchini individual psixologik xususiyatlarini to'g'ri baholagan holda xizmatga taqsimlashi lozim. Harbiy xizmatchining o'z kelajagiga qo'yilgan maqsadlari uni amalga oshirish vositalari yoki usullarida ko'rinishi mumkin.

Harbiy xizmatchi ruhiy barqarorligini ta'minlashning biologik omilini shakllantirish harbiy xizmatchidan o'z instinktlari, nerv tizimining kuchi, muvozanati va harakatchanligini jilovlashga bog'liq bo'ladi. Psixologik omillari esa harbiy xizmatchining bilish jarayonlari, temperamenti va xarakteri xususiyatlariga yuorg'iq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ijtimoiy omillari o'z navbatida yuqoridagi uch omillar bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти, Қуролли Кучлар Олий Бош Қўмондони Ш.М.Мирзиёевнинг 2022 йил 8-сентябрдаги ПФ-60 “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси”нинг 91-моддаси.
2. Абульханова-Славская К.А. Категория деятельности в советской психологии // Психологический журнал. – 1980. – №4. – Стр. 11–28.
3. Низомий номидаги ТДПУ доценти, психология фанлари номзоди С.Х.Жалилова. Шахснинг психологик барқарорлиги психик саломатлик кўрсаткичи сифатида” мақоласи. 317 бет.
4. Н.А.Жожикашвили, А.С.Малых, А.А.Девятерикова. “Психическая устойчивость” Т. 14 № 4 С. 49–65. 49-стр.